

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



MENEJMENTNING TADQIQOT USULLARI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi: 410 000 - Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik: 70411801 – "Menejment" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodi RESMAN105	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 74	Mustaqil ta'lim (soat) 76	Jami yuklama (soat) 150
Menejmentning tadqiqot usullari	Ma'ruza-30 Amaliyot-44		

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga menejmentning tadqiqot usullarini o'rgatish, aniq vaziyatlarda ulardan foydalanish bo'yicha mutaxassislikka mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fan mazmunini anglab yetish talabalarining boshqaruv tizimlarini tadqiq etish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, tadqiqot maqsadiga mos usullarni tanlash, aniqlangan muammolar yechimlarini ishlab chiqish, boshqaruv samaradorligining iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini qo'llash haqidagi nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Fanning vazifasi - talabalarni menejmentda tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslari bilan tanishtirish, talabalarda boshqaruv vaziyatlarini tadqiq etish uslubiyoti bo'yicha fikrlashni rivojlantirish, menejmentda tadqiqotlarida umumilimiy va rasmiy-mantiqiy usullar, operatsiyalarni tadqiq etish usullari, tadqiqotlarning aniq usullari, sifarga doir usullari, statistik va ekonometrik usullarini qo'llash, menejmentda tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish hamda tadqiqotlarning samaradorligini baholash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammo va vaziyatlarni anglash, ularning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari va mazmunini aniqlash, ularni yechish yo'llari va vositalarini topish;
- boshqaruv amaliyotidagi mavjud muammolarni o'rganish va uni bartaraf etishda SWOT – tahlili, SNW – tahlili, SMART – tahlili, morfologik tahlil usullarni qo'llay olishi;
- menejmentda tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkil etish, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini dasturlarini rejalashtirish va boshqarish;
- menejmentda ma'lumotlarni statistik va ekonometrik tahlil qilish usullari, korrelyatsion – regression modellashirishni qo'llash;
- menejmentda tadqiqotlarning samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotlarning o'rni.

Tadqiqot muammo va vaziyatlarni fahmlash, ularning paydo bo'lishini aniqlash, xususiyatlari va mazmunini ochib berish, universal hal qilish yo'llari va vositalarini topishdan iborat faoliyat turi sifatida.

2-mavzu. Menejmentda ilmiy tadqiqotlarni tushunish va tushuntirishning ahamiyati

Tushunish va uning bilish bilan o'zaro nisbati. Ma'no tushunchitasining tahlili. Simvol. Dialog. Tushuntirish.

3-mavzu. Menejmentda ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish jihatlari

Ilmiy tadqiqot namoyon bo'lishining asosiy jihatlari. Ilmiy nasrlar tasnifi. Adabiyotlarni o'rganish amaliyoti.

4-mavzu. Boshqaruvni rivojlantirishda boshqaruv tadqiqotining o'rni.

Boshqaruv tadqiqotining maqsadlari, vazifalari, ob'ekti va predmeti. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun menejmentdagi muammoli vaziyatlarni o'rganishning o'rni. Tadqiqot boshqaruv jarayonining boshlang'ich bosqichlaridan biri sifatida.

5-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarning nazariy asoslari.

Menejmentda tadqiqotlar o'tkazish maqsadlari va vazifalari. Menejer faoliyatida tadqiqotchilik funksiyasining o'rni va vazifalari.

6-mavzu. Menejmentda tadqiqotlarning uslubiy asoslari.

Menejmentda tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Boshqaruv kontseptsiyasi. Tadqiqotchilik faoliyatining umumiy ta'rifi. Tadqiqotchilik yondashuvini tanlashga menejmering shaxsiy hususiyatlari ta'siri.

7-mavzu. Boshqaruv vaziyatlarini tadqiq etish uslubiyoti.

Tadqiqot – boshqarish jarayonining dastlabki bosqichi sifatida. Fundamental va amaliy, miqdor va sifat, natural va qiymat, absolyut va nisbiy, nodir va majmuaviy tadqiqotlar. Qo'llanilayotgan tadqiqot turlarining tashkiliy omillar – qaror qabul qilish darajasi, kutilayotgan natija va boshqa omillarga bog'liqligi.

8-mavzu. Boshqaruv tadqiqotida muammo qo'yish darajalari.

Boshqaruv faoliyatida muammoli vaziyatlar. Tadqiqotda muammo

qo'yish darajalari: intuitiv (xissiy) anglash, mahalliy/ashirish, kompozitsiya (joylashirish), baholash, asoslash, eksplikatsiya (tushuntirish).

9-mavzu. Menajmentdagi umumilmiy va rasmiy-mantiqiy tadqiqot usullari xususida.

Tizimli yondashuv usullari (tizimli tahlil, modellashtirish), mantiqiy nazariy-usullar (abstraksiyalash, taqqoslash, induktsiya, deduktsiya), empirik-nazariy (eksperiment, o'lchash, kuzatish, ta'riflash).

10-mavzu. Empirik tadqiqot usullari

Kuzatish usuli (xronometrik kuzatish; suratga olish; taqqoslash), eksperiment o'tkazish usuli (ijtimoiy-iqtisodiy eksperiment- o'tkazishning asosiy belgilari; eksperiment usulining bosqichlari)

11-mavzu. Rasmiy tadqiqot usullari.

Asosiy rasmiy tadqiqot usullari. Mulohaza. Rasmiy tadqiqot usullaridan samarali foydalanish. Argumentatsiya.

12-mavzu. Tadqiqotning asosiy maqsadlarini aniqlash.

Tadqiqotning asosiy maqsadlarini aniqlash. Muammoli vaziyat ta'rifi va dastlabki tahlili. Ilmiy muammo ifodasi. Farazlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish. Axborotlarni yig'ish va tasniflash. Kontseptsiya (ilmiy nazariya) ishlab chiqish bosqichlari.

13-mavzu. Menajment ilmiy tadqiqotiga axborot va axborot texnologiyalarining ta'siri

Axborot, bilim, tna'umot tushunchalarining tahlili. Informatika va informatizatsiya. Axborot texnikasi va axborot texnologiyasi. Axborotlashgan jamiyati kontseptsiyasi. Axborotlashgan jamiyati kontseptsiyasi. Nanotexnologiya.

14-mavzu. Biznesni rivojlantirishning axborot manbalari bilan ta'minlash usullari

Axborot tizimi. Biznesda axborot turlari va ularni turkumlash. Biznesda axborotlarni to'plash usullari. Biznes faoliyatida marketing axborotlarining asosiy elementlari. Biznesni yanada rivojlantirishda axborot maydonini kengaytirish texnologiyasi.

15-mavzu. Menajmentda operatsiyalarni tadqiq etish usullari.

Operatsiyalarni tadqiq etish vazifalari, uslubiy tamoyillari va ishchi usullari - maxsus ilmiy va amaliy kurs sifatida. Amaliyotning turli sohalari masalalarini yechishda qo'llaniladigan oqillashirishning matematik usullari:

chiziqli, nochiziqli, dinamik dasturlash, o'yinlar nazariyasi, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi va boshqalar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Boshqaruvni rivojlantirishda tadqiqotlarning o'rni.
2. Menajmentda ilmiy tadqiqotlarni tushunish va tushuntirishning ahamiyati.
3. Menajmentda ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish jihatlari.
4. Boshqaruvni rivojlantirishda boshqaruv tadqiqotining o'rni.
5. Menajmentda tadqiqotlarning nazariy asoslari.
6. Menajmentda tadqiqotlarning uslubiy asoslari.
7. Boshqaruv vaziyatlarini tadqiq etish uslubiyoti.
8. Boshqaruv tadqiqotida muammoni qo'yish darajalari.
9. Menajmentdagi umumilmiy va rasmiy-mantiqiy tadqiqot usullari xususida.
10. Empirik tadqiqot usullari.
11. Rasmiy tadqiqot usullari.
12. Tadqiqotning asosiy maqsadlarini aniqlash.
13. Menajment ilmiy tadqiqotiga axborot va axborot texnologiyalarining ta'siri.
14. Biznesni rivojlantirishning axborot manbalari bilan ta'minlash usullari.
15. Menajmentda operatsiyalarni tadqiq etish usullari.
16. Menajment operatsiyalarni tadqiq etish usullarida qo'llaniladigan sohalari.
17. Menajmentda tadqiqotning aniq (mahsus) usullari.
18. Menajment tadqiqotlarida tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlari
19. Menajmentda tadqiqotlarni rejalashtirish.
- 20-mavzu. Menajmentda ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktiv ishlari (ITTKI) ning tadqiqotlarni tashkil etish.
21. Biznesni tadqiq etishni tashkil qilish.
22. Biznesni tadqiq etish usullarini tanlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedial qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Menajmentda muammoli vaziyatlarni tadqiq etishda umumilmiy va rasmiy-mantiqiy usullarni tahlil qilish

<p>2. Menajment tadqiqotlarida statistik va ekonometrik usullarni tahlil etish.</p> <p>3. Menajmentda tadqiqotlarning samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash.</p> <p>4. Boshqaruv tizimini tadqiq etishda eksperiment usuli: tushunchasi, turlari ularni rejalashtirish tamoyillarini o'rganish</p> <p>5. Tizimli tadqiqotlarda boshqaruv hisobining asosiy qoidalari bo'yicha tezis yozish.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • korxonaning ichki va tashqi muhitlarini tahlil qilish modellarini, menajmentda tadqiqot usullari samaradorligini oshirish va takomillashtirish uslubiyatlari <i>haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • menajmentda tadqiqot usullarining yangi analitik usullarini ishlatishni; raqobat muhitini tadqiq etish, menajmentda tadqiqot usullarini rejalashtirish va ijrosini ta'minlash usullarini bilish va ulardan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • menajmentda tadqiqot usullarini rejalashtirish va ijrosini ta'minlash usullarini qo'llay olish, menajmentda tadqiqot usullarini ijrosini ta'minlash va ularning natijalaridan foydalanish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>. 	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. 	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Kreditni olish uchun talaba oraliq nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismi muvaffaqiyatli topshirish lozim.</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. V.Alemasov, SH.O. Mamadaliyov Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV</p>
--	---	--	--

<p>Akademiyasi, 2015. -102 b.</p> <p>2. Т.Э. Минякова Методы исследований в менеджменте. Учебное пособие. –Ульяновск: УлГТУ, 2017. – 112 с.</p> <p>3. В.П.Мельников., А.Г. Схиртладзе Исследование систем управления. Учебник.-М.: Издательско Юрайт, 2016 -447 с.</p> <p>4. Я.Д. Гельруд Методы исследований в менеджменте для магистров. Электронное учебное пособие. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2013. - 305 с.</p> <p>5. N.Q. Yo'ldoshev, J.X. Rashidov "Menajmentning tadqiqot usullari" (Darslik)-T.: TDIU 2020. 163 bet.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. А.С.Малин, В.И. Мухин Исследование систем управления. Учебник. –М.: Издательский дом ГУ ВЧЭ, 2005 – 399 с.</p> <p>2. В.И. Мухин Исследование систем управления. Учебник. –М.: Экзамен, 2007– 384 с.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www.google.so.uz – Qidiruv tizimi.</p> <p>2. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>3. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi.</p> <p>5. www.ziyounet.uz – Ta'lim portali.</p>	<p>7. Namangan muhandislik-qurilish institut tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>8. Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>T.Ergashev - NamMQI "Menajment" kafedrası professori</p> <p>9. Taqrizchilar:</p> <p>Q.Umarqulov – NamDU "Menajment" kafedrası dotsenti, i.f.n. (turdosh OTM).</p> <p>R.Ismailov – NamMTI "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti i.f.n. (turdosh OTM).</p>
--	---